




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 52 562,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,5 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 15 962,2 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish 100,8 % ni tashkil etdi. Jumladan, 9 539,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 6 423,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2022- yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 102,4 % va 100,5 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,8 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 5,3 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 26,8 % ga o'sishini hamda tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 4,3 % ga, pasayishida ko'rishimiz mumkin.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43 699,3 mlrd. soʻmni va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

Oʻz navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish 27,2 % ga, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 22,4 % ga, metallurgiya sanoati 19,2 % ga, elektr uskunalar ishlab chiqarish 18,9 % ga, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 15,3 % ga oshganligida kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmogʻining ulushi 4,3 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 24,7 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali 31,4 % ni, quyi texnologiyali 39,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 7 660,9 mlrd.soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 95,7 % ni tashkil qildi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga 4,1 %, boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 4,4 % ga kamayganini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1 855,6 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 105,3 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 5,3 % ga oshgan.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 436,4 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 126,8 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2023-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 26,8 % ga kamaygan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish hajmi**
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)


	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, foiz hisobida
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	53 652,1	104,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	7 660,9	95,7
Xom neft va tabiiy gaz	7 471,9	95,9
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	148,2	95,6
Tog'-kon sanoatida texnika xizmatlari	40,7	76,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	43 699,3	107,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	5 600,8	103,9
Ichimliklar	4 863,9	98,8
Tamaki mahsulotlari	131,7	84,8
To'qimachilik mahsulotlari	2 442,0	99,4
Kiyimlar	777,1	104,8
Charm va charmdan mahsulotlar	60,4	82,8
Yog'och hamda yog'och va po'kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to'qish uchur materiallardan yasalgan buyumlar	287,2	67,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari	1 134,7	100,4
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo'yicha xizmatlar	710,3	91,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	172,0	37,1
Kimyo mahsulotlari	1 828,9	127,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	1 087,3	73,0
Rezina va plastmassa buyumlar	1 869,3	115,3
Boshqa nometall mineral buyumlar	1 814,0	95,1
Metallurgiya sanoati	7 230,3	119,2
Mashina va asbob-uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar	2 123,9	122,4
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	779,3	69,1

*davomi*

Elektr uskunalar	5 080,6	118,9
Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	1 648,1	116,0
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	1 906,0	88,7
Boshqa transport vositalari va uskunalar	327,2	106,5
Mebel	333,2	105,0
Boshqa mahsulotlar	964,6	163,3
Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar	526,6	72,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1 855,6	105,3
Elektr, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab chiqarish va tarqatish	1 671,1	91,6
Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish	184,5	97,5
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	436,4	126,8
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	253,4	110,8
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish	183,0	157,8
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish shu jumladan:	15 962,2	100,8
oziq-ovqat tovarlari	8 543,1	102,4
nooziq-ovqat tovarlari	6 423,0	100,5
Aroq va sharob mahsulotlari	996,1	111,9

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 53 652,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 54,7 % ni tashkil etdi, shu bilan birga davlat sektorida 11 658,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 21,7 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 41 994,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 78,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida 2023 -yil yanvar-iyun oylarida (foiz hisobida)



Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-iyun oylarida 53 652,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.



Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,7 % ni, qayta ishlash sanoati 107,8 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 105,3 % ni, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 126,8 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan foizda)

2022 -yil yanvar-iyun

2023-yil yanvar-iyun



	Ishlab chiqaradigan sanoat
	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)

	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Neft	ming tn	337,5	104,1
Gaz kondensanti	ming tn	334,3	88,0
Tabiiy gaz	mln. kub.m	16 462,3	90,4
Chaqiq tosh	tonna	247 988,8	71,3

	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
--	--------------------	--------------------------	---

Qayta ishlash sanoati

Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>tonna</i>	62 752,0	182,5
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tonna</i>	2 371,8	144,7
Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog 'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq	<i>tonna</i>	6 579,0	2,9 m.
O'simlik yog'i (tozalangan)	<i>tonna</i>	2,3	0,5
Margarin va spreadlar	<i>tonna</i>	1 992,4	87,8
Aroq - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	7 282,1	82,0
Konyak spirti - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	3 532,2	199,4
Uzum vinosini distillash yoki uzumn siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	356,0	101,4
Uzum vinolari	<i>ming litr</i>	2 718,7	72,6
Pivo	<i>mln. dona</i>	45 301,1	111,6
Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan	<i>mln.dona</i>	704,8	69,3
Paxtadan yigirilgan ip	<i>tonna</i>	17 057,6	92,1
Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan ip gazlamalari (bint, bog'lash materiallari, tibbiy doka ishlab chiqarish uchun matolar)	<i>ming kv.m</i>	225,8	-
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	<i>tonna</i>	10 165,2	133,1
Gilam va gilamlar	<i>ming kv.m</i>	394,8	87,3
Paketlar va paketlarni qadoqlash	<i>tonna</i>	1 314,9	145,0
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	<i>ming dona</i>	379,0	69,7
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	<i>ming dona</i>	330	17,8



	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Boshqa ish kiyimlari - ming so'm	ming so'm	10 239,0	
Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan)	tonna	737,0	117,2
Daftarlar	tonna	57,0	-
Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar -	tonna	39 362,0	12,0 m.
Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	36 314 546,0	23,8
Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	15 470 301,0	70,3
Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprossesor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	4 790 282,0	81,5
Haftada to'rt iyundan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	929 549,0	115,8
Yog'lash uchun ishlatiladigan moylar	ming tonna	2,4	77,2
Suyultirilgan propan va butan	ming tonna	276,0	98,0
Texnik oltingugurt	tonna	117 323,0	100,0
Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar	tonna	52,0	65,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida	tonna	7 900,0	98,1
Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar	tonna	3 873,0	111,4
Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti	ming litr	5 985,0	103,5

	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Birlamchi formalardagi polipropilen	tonna	5 759,2	108,5
Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalarga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar	tonna	85,9	84,3
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar	tonna	7 505,1	69,7
Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar	tonna	1 083,6	98,4
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	tonna	225 490,5	95,2
Butilkalar	ming dona	133 092,8	50,6
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	tonna	92 677,0	28,0
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar	tonna	52 373,3	90,2
Po'latdan choksiz neft va gaz	tonna	15 247,3	86,3
Mis sim	tonna	19 916,0	142,8
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	tonna	615,6	5,4 m.
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar	tonna	3	105,6
Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari	tonna	5 582,6	140,2



	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblari	<i>tonna</i>	5,1	17,4 m.
1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar	<i>tonna</i>	1,4	15,1
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagan elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar	<i>tonna</i>	34,2	119,2
Izolyatsiya qilingan o'rash simlari	<i>tonna</i>	1 041,4	84,3
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari	<i>tonna</i>	5 476	141,2
Sovutkich va muzlatkichlar -	<i>dona</i>	342 999,0	113,4
Traktorlar	<i>dona</i>	10	23,3
Avtomobil dvigateli	<i>dona</i>	105 597	90,8
Ixtisoslashgan yengil avtomobillar - dona	<i>dona</i>	219,0	-

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektroyenergiya	<i>mln.kVt soat</i>	1 937,5	7,8 m.
Issiqlik energiyasi	<i>ming Gkal</i>	5 982,4	86,0
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	457 634,0	114,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	165 211 509,0	125,8
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	88 233 244,0	111,5


	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	66 760 488,9	108,0
Plastmass chiqindilar	tonna	886,9	147,1
Xavfsiz metall chiqindilar	tonna	1 609,0	115,3
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	tonna	20 239,3	66,8
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	tonna	156,0	104,9

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 25,5%), Sergeli tumani (13,2%), Olmazor tumani (7,5%), Bektemir tumani (7,5 %), Chilonzor tumani (7,1 %), Yangihayot tumani (6,4 %) hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yunusobod (4,1%), Shayxontohur tumani (5,5%), Uchtepa (5,5%) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)






Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 53 652,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 18 016,4 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 15 962,2 mlrd. so'mni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 5 360,1 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,7 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (0,8 % ga) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 29,8 % ni tashil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)




2023-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8 543,1 mlrd. soʻmga yetkazilib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 53,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 423,0 mlrd. soʻm, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 40,2 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 996,1 mlrd. soʻm hisoblanib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Hududlarning jami isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)




Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda
(2023- yil yanvar-iyun oylarida, oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan)





**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning
o'sish sur'atlari, foizda (2023- yil yanvar-iyun oylarida,
o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Yunusobod tumani (132,0 %), Uchtepa tumani (129,3 %), Mirzo Ulug'bek tumani (129,3 %), Sergeli tumani (111,8 %) va Yashnabod tumanlarida (105,9 %) kuzatilmoqda.

Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Chilonzor tumanlarida (68,1 %), Shayxontohur tumani (79,1 %) va Mirobod tumanlarida (81,8 %) kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 35,1 % ni tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-iyun)**

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (64,7 %), Yunusobod (57,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Yashnabod (15,1 %) va Yangihayot (23,5 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 16 862,3 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 31,4 % ni tashkil qildi.

Qoʻshma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foizda 2023- yil yanvar-iyun oylarida





Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,5 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1394 ta korxona (jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 12,2 %) Olmazor tumaniga, 1340 ta korxona (11,7 %) Chilonzor tumaniga, 1248 ta korxona (10,9 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil 1-iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil yanvar-iyun oylarida)




2023-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 765 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 11,5% Chilonzor, 11,1% Olmazor, 10,5 % Yunusobod, 10,5 % Mirzo Ulug'bek, 10,2% Yashnabod tumanlari yuqori ulushga ega.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)

	Loyihalar soni, birlikda	Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari	Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda
Jami:	307	8 071 101,8	110 701,0	1178
<i>shundan;</i>				
Uchtepa	18	105 351,7	584,0	142
Bektemir	48	328 759,9	6867,1	12
Yunusobod	7	130 929,9	44,0	157
Mirzo Ulug'bek	8	129 007,0	543,0	44
Mirobod	29	32 797,7	729,0	18
Shayxontohur	13	393 078,3	551,0	-
Olmazor	52	675 088,3	4922,0	374
Sergeli	41	2 136 103,0	2194,1	81
Yakkasaroy	24	261 844,0	505,0	22
Yashnabod	21	1 321 155,0	31562,1	63
Yangihayot	17	175 165,0	1296,6	28
Chilonzor	29	2 381 822,0	60903,1	237



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2023- yil yanvar-iyun oylarida



Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);